

DEVIANT XULQ-ATVORNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOHIYATINING TIZIMLI TAHLILI.

Xolmurotova Shoxista Mirzalieva

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Deviant xulq-atvor- bu umume'tirof etilgan me'yorlarga zid bo'lgan, ijtimoiy normalarni buzadigan va insoniyat jamiyatni qoidalariga, faoliyati, urf-odatlari va an'analariga zid bo'lgan xatti-harakatlar. O'quvchilarning deviant xatti-harakati hozir juda keng tarqalgan va deyarli har bir maktabda kuzatiladi. Bu holat deviant xulq-atvor hodisasini sotsiologlar, o'qituvchilar, psixologlar, shifokorlar, huquqtartibot idoralari xodimlarining diqqat markaziga qo'ydi. Ushbu og'ishning sababi talabalarning tashqi dunyo, ijtimoiy muhit va o'zlari bilan munosabatlari va o'zaro ta'sirining o'ziga xos xususiyatlarida yotadi. Shuning uchun deviant xulq-atvorning asosiy tushunchalari va nazariyalarini, asosiy yondashuvlarini ko'rib chiqish, uning mohiyatini va katalizatorlar kabi dinamikasiga ta'sir etuvchi omillarni tushunish muhimdir. Deviant xulq-atvorning ta'rifiga turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, ular turli fanlar nuqtai nazaridan izohlanadi. Falsafa inson hayoti va dunyoga taalluqli eng umumiy masalalar - inson yashaydigan va harakat qiladigan dunyo bilan shug'ullanadi. Xulq-atvorning xususiyatlarini dunyo mavjudligining sabablari va maqsadlari, inson hayotining mazmuni, erkinlik toifasi va insonning ushbu erkinlikdan foydalanish imkoniyati kabi masalalar bilan bog'lash mumkin. Psixologiya deviant xulq-atvorning sabablarini shaxs shaxsi tuzilishida, uning ichki dunyosi, ong darajasida, asosiy ehtiyojlarni qondirish qobiliyatiga bo'lgan psixologik reaktsiyalarning xususiyatlarida, shuningdek, har xil xarakter, idrok va hissiyotlarda ko'radi. Psixologyaning asosiy qiziqishlaridan biri bu inson harakatlarining zamirida nima yotganini tushunish istagi. Har bir insonning o'ziga xos g'oyalari, tajribalari, ma'lum bir tarzda harakat qilish moyilligi bor va psixologlar insonning ichki dunyosi qanday qonunlar asosida faoliyat yuritishini bilishdan manfaatdor.

Deviant xulq-atvorning vujudga kelishi haqida ikki xil qarash mavjud bo'lib, birinchisi tabiiy-biologik, ikkinchisi ijtimoiy reduksion fikrlardir. Tabiiy-biologik qarashlarga ko'ra, deviant xulq-atvorning kelib chiqishida biologik omillarning roli alohida o'rin tutadi. Genetik tuzilishning o'ziga xosligi, biohimik boshqarishning buzilishi, asab tizimi mexanizmlari ish faoliyatining buzilishi va boshqalar shunday omillardandir. Ijtimoiy-reduksion nazariyalar har qanday ichki, shu jumladan, psixologik (shaxs dispozitsiyalari) rolini inkor etgan holda og'ishgan xulq-atvorni ijtimoiy-iqtisodiy holatlar bilan tushuntirishga harakat qiladi. Venger psixologi F.Patakinining fikricha, deviant xulq-atvor tizimli yoki ko'plab sababiy

bog'liqlikka ega bo'lib, uning vujudga kelishi bir emas, balki bir qancha ya'ni tarixiy, makrosotsiologik, ijtimoiy-psixologik va individual-shaxsniy omillar roliga bog'liq. Deviant xulq-atvorning shakllanishiga ham tashqi (jumladan, ijtimoiyiqtisodiy), ham ichki (psixologik) omillar ta'sir ko'rsatadi.

Shaxsning deviant xulq-atvori sohasidagi tadqiqotlar o'smirlarning noqonuniy xulqatvorining o'sish tendentsiyalari va oilaviy muammolarning kuchayishi o'rtasida bevosita bog'liqlikni ko'rsatadi. Yuqorida aytilganlar bilan bog'liq holda, o'smirlar deviatsiyasining sabablari va uni bartaraf etishga yordam beruvchi omillarni, deviant o'smirlar bilan o'quv va profilaktika ishlarining shakllari va usullarini o'rganish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hatto eng rivojlangan, yuqori darajada tashkil etilgan va sivilizatsiyalashgan jamiyatda ham, mutlaqo har bir kishi unda belgilangan me'yor va qoidalarga qat'iy va hamma joyda qat'iy rioxalar qiladigan, o'zлari belgilagan ijtimoiy rollarni qat'iy bajaradigan vaziyatga erishish mumkin emas. Har qanday jamiyatda jamiyat toqat qila olmaydigan ushbu normalar, qoidalar va rollarning buzilishi har doim mavjud[2]. Deviant xatti-harakatlarning sabablari noaniq tarzda belgilanadi. Tadqiqotchilar e'tiborini shaxsiy, psixologik og'ishlar va tartibsizliklarga qaratadilar (nevrozlar, psixozlar va boshqalar); sotsiologlar - ijtimoiy guruhlarning madaniyat me'yorlaridan chetga chiqishlari haqida. Shunday qilib, E.Dyurkgeym deviant xulq-atvorni ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarning zaifligi va nomuvofiqligi bilan, R.Merton esa - sotsial-madaniy maqsadlar va ularga erishishning ijtimoiy tomonidan tasdiqlangan institutsionallashtirilgan vositalari o'rtasidagi tafovut bilan bog'ladi.

Deviant xulqaga eltuvchi barcha sabablar, motivlar, holatlar va xatti-harakatlarning umumiyligini aniqlash va o'rganish katta ahamiyatga ega. Ushbu omillarning ko'pchiligi va - o'smirning salbiy hayotiy vaziyatlari, ayniqsa yomon rivojlangan, turli sabablarga ko'ra yo'qolgan yoki ijobiy harakatlarga hali shakllanmagan ijtimoiy yo'nalish deviant xatti-harakatlar uchun shart-sharoitlarni yaratadi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra ularning soni kattalarga qaraganda ikki hissa tez oshmoqda. Deviatsiya deviant, delikvent va jinoiy xulq-atvordan iborat. Deviant xulq-atvor-mikro ijtimoiy munosabatlar (oilaviy, mактабдаги муносабатлар) va kichik ijtimoiy guruhlarga xos bo'lган ijtimoiy normalar va xulq-atvor qoidalarini buzish bilan bog'liq me'yordan og'uvchi xulq-atvor turlaridan biridir. Bu xulq-atvorni g'ayriintizomiy deb atasak ham bo'ladi. Deviant xulq-atvorning yorqin namoyon bo'lishiga namoyish, agressiya, chaqiruv, o'qishdan qochish va daydilik, boalar va o'smirlarning aroqxo'rlik, giyohvandlik va u bilan bog'liq g'ayriijtimoiy harakatlar, jinsiy xarakterdagi g'ayriijtimoiy hattiharakatlar, o'zigo' suiqasd qilishga urinishlarni misol qilib keltirsak bo'ladi.

Delinkvent xulq-atvor deviantdan farqli ravishda bolalar va o'smirlarning takrorlanib turuvchi g'ayriijtimoiy hatti-harakatlar sifatida xarakterlanadi. Bu harakatlar huquqiy normalarni buzuvchi, biroq ijtimoiy xavf darajasiga ko'ra jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydigan muayyan harakatlar majmuasiga aylanadi. Delikvent xulq-atvorning quyidagi turlari mavjud: -agressiv xulq-atvor, bunga haqoratlash, sadistik harakatlar, o't qo'yish kabilar kiradi; - g'arazli xulq-atvor: kichk o'g'riliklar, ta'magirlik, avtoulovlnarni olib qochish va moddiy daromad olish maqsadidagi boshqa mulkiy tajovuzlar; -giyohvand moddalarni yetishtirish va tarqatish. Delikvent xulq-atvor nafaqat tashqi jihatdan, balki ichki-shaxsiy xulq-atvorda ham namoyon bo'ladi. YA'ni bunda o'smirda ichki tartibga solish tizimini nazorat qilishni susayishiga olib keluvchi qadriyatlarning o'zgarishi ro'y beradi. Jinoiy hatti-harakat jinoiy javobgarlikka tortishga, ma'lum yoshga yetganda jinoiy ish qo'zg'ashga sabab bo'luvchi va jinoyat kodeksining muayyan moddalarida nazarda tutilgan g'ayrihuquqiy hatti-harakatlar hisoblanadi. Deviatsiyaning salbiy turlari ijtimoiy potologiya hisoblanadi. Bularga aroqxo'rlik, toksikomaniya, giyohvandlik, fohishabozlik, o'z joniga qasd qilish, huquqbuzarlik va jinoyatchilikni kirtsak bo'ladi. Ular tizimni barbod etishadi, uning asoslariga putur yetkazishadi va anchagina zarar keltirishadi. O'smirlarning deviant xulq-atvori sabablari. Me'yordan chetga chiquvchi xulq-atvor murakkab tabiatga ega bo'lib, turli xil omillar bilan izohlanadi. Voyaga yetmaganlarning deviant xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi omillar quyidagilardir: 1. Biologik omillar bola organizmida uning ijtimoiy adaptatsiyasini qiyinlashtiruvchi fiziologik yoki anotomik xususiyatlarning borligida o'z ifodasini topadi. Ularga quyidagilar kiradi: -irsiy xsusiyatlar; -aqliy rivojlanishning buzilishi, eshitish va ko'rishning susayishi, asab tizimining zararlanishi va boshqalar; -organizmga psixofiziologik zo'r berish, nizoli holatlar, atrof-muhitning kimyoviy tarkibi, turli somatik, allergik, toksik kasallanishlarga olib keluvchi, ya'ni quvvat manbalari bilan bog'liq bo'lgan psixofiziologik xususiyatlar. 2. Psixologik omillar. Bularga bolada psixopatalogiya yoki xarakterining aksetkatsiyasining borligi kiradi. Bu me'yordan chetga chiqishlar asab kasalliklari, psixopatiya, nevrosteniya va bolada g'ayriadekvant reaksiyalarni paydo qiluvchi boshqa omillarda namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'oziyev E. G' "Psixologiya". T. 2008 yil.
2. G'oziev E.G'. "ONTOGENEZ PSIXOLOGIYASI". NOSHIR TAXRIRI OSTIDA T. 2020 YIL.
3. Менделевич В.Д. "Психология девиантного поведения". М.:2016 yil

4. Shoumarov G‘, Umarov B, Akramova F. “YOSHLARDA XULQ OG‘ISHI VA TARBIYA BUZILINING OLDINI OLISH BO‘YICHA PSIXOLOGIK MASLAHATLAR”. Toshkent.:2015 yil
5. Abdulla, S., & Abduvakilovna, K. U. (2022). AXBOROT SAVODXONLIGI VA AXBOROT IZLASH XULQ-ATVORIDAGI PSIXOLOGIK OMILLAR. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 586-589.
6. Abduvakilovna K. U. et al. O‘SMIRLARDA DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA OILAVIY NIZOLARNING TA’SIRI //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 19. – №. 2. – С. 91-94.
7. Abduvakilovna K. U. et al. O‘SMIRLARDA SALBIY XULQ-ATVOR NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 19. – №. 2. – С. 87-90.
8. Abduvakilovna K. U. et al. OLIY O‘QUV YURTI TALABALARIDA KASBIY VA AXLOQIY SIFATLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIKPSIXOLOGIK TAJRIBA ISHLARI NATIJALARI //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 19. – №. 2. – С. 95-

